

## МО'ТАВАР ОНА СИЙМОСИ – “ДУНЫОНING ISHLARI” QISSASIDA

*Yo'ldoshev Ilhom Abdujalil o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi*

*2-kurs kursanti*

*E-mail: ilkhomyuldoshev77@gmail.com*

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning onasi ya'ni Hakima ayada mujassam bo'lgan milliy o'zbek ayollariga xos jihatlarni, shu bilan birga katta hayotga qadam qo'yayotgan har bir o'zbek qizi o'zida shaklantirishi lozim bo'lgan sabr-toqat, matonat, shukronalik hissi va o'z oilasini eng yaxshi berilgan boylik sifatida ko'rishi lozimligi va eng oliy ne'mat hisoblangan farzand uchun har narsaga tayyor ona obrazining o'ziga xos xususiyatlarni ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, maqolada har bir farzand o'z onasini hayotlik chog'ida jannat kaliti sifatida ardoqlab, ko'z qorachig'idek asrab-avaylashi kerakligining yaqol misoli sifatida O'tkir Hoshimovning real voqealarga asoslangan qissasi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Qissa, real, epik janr, novella, termin, povest, nasr, nazm, xronologik, lirizm, harakter, avtobiografiya, fantastik, janr.

THE FIGURE OF A RESPECTED MOTHER - IN THE STORY  
"WORKS OF THE WORLD"

**Anotation:** In this article, the characteristic aspects of national Uzbek women embodied in the verse of Utkir Khashimov's mother, Hakima, as well as the patience that every Uzbek girl who is stepping into a big life should develop in herself and perseverance, gratitude, and the need to see one's family as the best given wealth, and we can see the unique characteristics of the image of a mother who is ready to do anything for the child, who is considered the highest blessing.

Also, the article mentions the story of Utkir Khashimov, based on real events, as a vivid example of how every child should cherish his mother as the key to heaven during his lifetime.

**Key words:** Short story, real, epic genre, novella, term, narrative, prose, verse, chronological, lyricism, character, autobiography, fiction, genre.

ФИГУРА УВАЖАЕМОЙ МАТЕРИ - В РАССКАЗЕ "ДЕЛА МИРА"

**Анотация:** В данной статье характеристики национальных Узбекских женщин, воплощенные в стихах Уткира Хашимова матери, то есть Хакимы, а также терпение, которое должна развивать в себе каждая узбекская девушка,

вступающая в большую жизнь и благодарность, потребность видеть в своей семье как наилучшее данное богатство и мы можем увидеть уникальные характеристики образа матери, готовой на все ради ребенка, который считается высшим благом.

Также в статье упоминается рассказ Уткира Ҳашимова, основанный на реальных событиях, как яркий пример того, как каждый ребенок должен при жизни дорожить своей матерью как ключом к небу.

**Ключивые слова:** Рассказ, реальный, эпический жанр, новелла, термин, повествование, проза, стих, хронология, лиризм, персонаж, автобиография, вымысел, жанр.

*“Dunyoning ishlari – Onalar sharaflangan abadiy barhayot mash’aladir.”*

**To’lqin Eshbekov**

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi  
Meros komissiyasi mas’ul kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Qissa** — badiiy adabiyotda epik janr turlaridan biri. G‘arbiy Yevropa va Amerika adabiyotida povest ma’nosidagi qissa tushunchasi yo‘q. Nasrning romandan boshqa barcha janrlari „Novella“ termini orqali ifodalanadi. Rus va o‘zbek adabiyotlarida qissaning hozirgi va qadimgi ma’nolari o‘rtasida farq bor. Masalan, qadimgi rus adabiyotida har qanday nasriy asar povest (qissa) deb atalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida rivoyat usulida nasr yoki nazmda yozilgan tarixiy-afsonaviy asarlar qissa deb yuritilgan. Masalan, „Qissai Sayfulmuluk“, „Qisasi Rabg‘uziy“ va boshqa Hozirgi ma’nodagi o‘zbek qissasi rus adabiyotidagi „povest“ terminiga to‘g‘ri keladi va asosan roman bilan hikoya oralig‘idagi o‘rtacha hajmli nasriy janrni ifodalaydi<sup>1</sup>.

Qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma’lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo‘lishi mumkin.

Roman kabi Qissaning ham avtobiografik (*Oybek, A.Qahhor, N.Safarov*), tarixiy (*Mirkarim Osim, Ya.Ilyosov* va boshqalar), fantastik (*T.Malik, H.Shayxov, M.Mahkamov* va boshqalar) turlari bor. Hozirda qissa nasrning eng faol janrlaridan bo‘lib, unda yosh yozuvchilar ham samarali ijod qilmoqdalar.

<sup>11</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qissa>

Adabiyotimizda onalar ulug'langan she'rlar, hikoyalar juda ko'p, lekin muqaddimasidan xotimasigacha faqat onalar ta'riflanagan-u tasvirlanagan, hajman romanlarga teng bo'lgan qissa faqat bitta, ya'ni O'tkir Hoshimovning qalamiga mansub "Dunyoning ishlari" qissasidir. "Dunyoning ishlari" boshqa asarlarga o'xshab tez va shiddat bilan yo'zilgani yo'q. Har bir hikoya mustaqil asar sifatida tug'ilgan. Ammo ularning hammasida ona obrazi bor. Bu kitobning dunyoga kelishida atoqli shoira Zulfiyaning katta hissasi bor. Adib bo'lajak kitobning birinchi boblarini "Saodat" jurnaliga olib borganida **Zulfiya** quyidagicha takidlab, yozuvchini qo'llab-quvvatlagan: *"Bu juda yaxshi asar bo'ladi, buni davom ettirish kerak. Jurnal esa kitobni sonma-son bosib boradi!"*<sup>2</sup> Shunday qilib kitob bir yildan ortiq muddatda dunyoga kelgan.

Shuni takidlash joizki, qissada albatta chin o'zbek ayollariga xos xususiyatlarni o'zida aks ettirgan mehribon ona obrazi O'tkir Hoshimovning mahorati ila hayotiy voqealarga asoslangan holda "Dunyoning ishlari" qissa yozilganligi taqsinga loyiqdir. Ushbu qissa orqali dunyodagi barcha onalarda mujassam bo'lgan hislatlarni, hamda o'z farzandlari uchun har narsaga tayyor bo'lgan va hayotning har qanday qiyinchiliklariga bardosh bilan hayot kechirgan ona obrazi shakllantirilgan. Shu bilan birga, barcha onalarni o'z farzandlari tomonidan hurmat qilgan holda, duolarini olib, muvvafoqiyatga erishishligi mumkin. Shu sababli onalarni qanchalik ulug'lasakda shunchalik kamligini yaqol dalilidir.

Adibning "Dunyoning ishlari" qissaning ayrim hikoyalariga to'xtalgan holda mehribon ona obrazini Sizlarga oyna-yu jahon kabi ko'rsatib berishga harakat qilaman. Bu albatta, har bir O'tkir Hoshimovning asarlarini sevib mutoala qiluvchilar uchun juda qiziq hisoblanadi degan umiddaman.

O'tkir Hoshimov "Oq oydin kechalar" hikoyasi orqali onasining qanchalik rahmdil bo'lganligini hamda barcha onalar mehribon ekanliklari ya'ni osmondagi yulduzlarni uchishini bu dunyoni tark etgan onalarning joni sifatida aks etirib, vafot etgan bo'lsada, uchgan yulduzlar birlashib go'yoki quyosh singari butun yer yuziga so'nmas-tuganmas nur sochishni davom etiradigan tabiiy ne'matdek ifoda etganligining guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, hayotimizda inson qadri qachonki u vafot etgandan keyingina bilinadi degan ibora bejizga qo'llanilmaydi, albatta. To'g'ri, ayniqsa bu inson qadr don va eng yaqin insoning bo'lsa, hayotni usiz davom etirish qiyindek tuyuladi. Yozuvchi "Tasalli" hikoyasi orqali onasi vafot etgandan so'ng qabrga ko'mishdan bir kun oldin kechasi bilan jala tinmaganini va qabrga qo'yib bo'lgandan so'ng quyosh charaqlab ketganligini yozib, qariya go'rkov tomonidan quyidagicha iliq fikrlar bildirgani bejizga

<sup>2</sup> O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari / qissa / "Adabiyot barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: O'lmasxon Hoshimova, To'lqin Eshbek. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. – 4 b.

emasligi namoyon etgan ya'ni, *“Bunaqa holat odatda ruhi pok insonlarda shunaqa bo'ladi.”* Bu bilan hayotda yomon ayol yoxud yomon ona bo'lmasligini aks etirgan. Shuningdek, adib *“Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim. Bola uchun ham onaning katta-kichigi bo'lmas ekan. Ona – ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas<sup>3</sup>.”* deb takidlashi orqali vaqt o'tishi bilan hamma o'zgarsa ham ona o'zgarimasligini ko'rsatib beradi.

Shu bilan birga, “Tush” hikoyasi orqali yozuvchi onajonlar sog'inchi bilan hamda xavotir ila qayg'urib o'z o'g'lini kutib uhlamasligi albatta, barcha xonadonlarda kuzatiladigan holatlardan biri bo'lsada, ushbu holat ba'zi farzandlar uchun erish tuyuladi, lekin vaqtlar o'tib, farzandini yarim kechasigacha ko'ziga uyqu olmasdan sabr bilan kutib o'tiradigan inson esa faqat yakka-yu yagona – Ona ekanligi faqat va faqat uni yarim tunda ham uyga kelishini kutib uhlamaydigan insonini vaqti kelib yo'qotganidagina anglab yetadi. Har narsani va har bir insonni u borligi yoki tiriklik chog'ida qadrlashni o'rganishi lozimligini uqtiradi ushbu hikoya.

Albatta, onalarning istaklaridan yana biri farzandlarini hamisha birga hamda ahil bo'lishini ko'rish nafaqat ularning tiriklik chog'ida balki vafot etgandan keyin ham davom etishini xohlaydilar. Darhaqiqat, buni barcha ota-onalarning eng asosiy istaklari sifatida bilish mumkin. Bu haqiqat ekanligi, O'tkir Hoshimovning “Haqqush” hikoyasi orqali barchaga ayondir. Ya'niki, yozuvchining yoshlik chog'ida Hakima aya tomonidan aytilgan “Haqqush” afsonasi orqali besh farzandini bir-biri bilan inoq bo'lishini shunchalik xohlaganini ko'rish mumkin. Chunki, ushbu afsonada bir birlarini yomon ko'radigan ikki aka-uka haqida so'z yuritilib, ularni ko'nglini olaman deb, o'rtada onasi adoyi tamom ekan. Bir kuni Xudoning qahri kelib, aka-ukani ukkiga aylantirib qo'yibdi va shu kundan beri ular qilgan hattolarini tushunib yetib kechqurunlari bir-birlarini chaqirishar ekanlar lekin topa olmas emishlar...

Har bir ona o'z farzandini o'ylaydi deb fikr yuritimiz lekin, shuni ham e'tibordan qoldirmaslik kerakki balki, ular boshqa “Farzandi” haqida ham o'ylaydi u qo'shning bolasi bo'lsa ham, bejizga *“Bir bolaga qirq mahalla ota-ona”* deb ta'kidlanmangan. Adibning “Qarz” hikoyasida shunday deb yozadi va u onasidan har oy oladigan pensiyasini qayerga ishlatayotganini so'raganda, qarzim bor deb javob berganida hayron bo'lgan ekan. Bir kuni qo'shni hovlida yashaydigan yeti yasharli qizcha oppoq bantik taqib, atlas ko'ylak kiyib chiqib qoladi va uning shu kuni tug'ilgan kuni ekanligi aytib, Hakima aya unga har doimgidek yangi tufli olib berganlarini aytib maqtanadi. Bu esa o'z o'rnida, O'tkir Hoshimovni bir vaqtlari bergan savoliga endi javob

<sup>3</sup> O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari / qissa / “Adabiyot barhayot asarlar” turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: O'lmasxon Hoshimova, To'lqin Eshbek. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 9 b.

topganini anglab yetadi. Shuning natijasida onalar faqatgina ochiq qo'l bo'libgina qolmay saxiy ekanliklarini ko'rsatadi.

Farzandiga halol luqma yedirish, bu o'z o'rnida ushbu farzandning kelajakda katta bo'lib, iymonli, insofli va halol inson bo'lishi kafolati hisoblanadi. Shu sababli Hakima aya farzandlariga halol luqma yedirish va oila ro'zg'orini tebratishga yordam berish maqsadida kam hurmat bilan qaraladigan kasb sifatida namoyon bo'ladigan ya'ni qisqa qilib aytganda farrosh bo'lib ishlar edilar. O'tkir Hoshimov beshinchi yoki oltinchi sinfda o'qib yurgan kezlarida uning akasi institutda o'qir edi. Shu paytlari akasiga Hakima ayaning ishlayotgan kasbi yoqmasdan onasini ushbu ishni tashlashliklarini aytadi lekin onasi unga javob sifatida uning qilayotgan ishi halol ekanligi aytgan. Endi shuni har bir farzand tushunib yetishi xohlardimki onalar qanday turdagi mehnat turi bilan shug'ullanishmasin bu albatta halol hisoblaniga hamda farzdlarini ustini but qornini to'q qilishga urunishlari yaqqol isboti sifatida adibning "Ikki afsona" hikoyasida uchratishimiz mumkin. Shuningdek, yozuvchining yoshlik chog'ida unga onasi ertaklar aytib berar edi. Ushbu hikoyani o'qish orqali bu ertaklarning tagidagi asl ma'nosini katta bo'lib chunib yetgan yozuvchi bejizga "Oldin onangga yana onangga va yana onangga so'ngra otangga yaxshilik qil" hadisini tushunib yetganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda har bir farzand yaxshilik qilishni birinchi bo'lib o'z onasidan boshlashi lozimdir.

"Gilam paypoq" – bu hikoyani yozgan adib o'zining o'yin qaroligi natijasida onasiga ozor yetkazgani haqida so'z borishini bilamiz albatta. Ona farzandining dardiga darmon bo'laman deb, o'ziga dard ortirvolishidan ham qo'rqmasdan, sovuq kunlarning birida tun payti bo'lishiga hamda qishloqdagi hech bir shifoxona ishlamasligiga qarab o'tirmasdan, farzandining dardi ila, qo'shni qishloqda yashaydigan shifokorning uyiga yalang oyoq kasal farzandini sovuq qorlarni yanchib ko'tarib borganligi o'z ornida har bir onaga o'z farzandining tan-u joni aziz hamda uni asrash uchun ular har nega tayyor ekanliklarini yaqqol ifodasini ushbu hikoyada ko'rishimiz mumkin. Shu sababdan, o'z ota-onamizning katta-kichik dardlariga darmon izlashga har bir farzand to'xtamasligi kerak hamda vaqtlar o'tishi bilan Ota-ona uchun eng yaxshi dardiga darmon bu farzandining mehri hamda bir og'iz shirin so'zi ekanligini yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, "Dunyoning ishlari" shunisi bilan boshqa asarlardan ajralib turadiki, bu asarda hayotiy voqealar shunday mahorat bilan asar holiga keltirilgan ya'ni uzluksizlik, izchillik, mantiqiylik romanlarni eslatga, hissiyot, asardan olgan taasurotlaringiz dostonni eslatadi. Hattoki, eng kichik hikoyasi ham sizga butun bir dostonning zavqini beradi.

Shu bilan bir qatorda, onalar madh etilgan ko'plab romanlar, hikoyalar, dostonlar, she'rlar va qissalar mavjud. Lekin, bu qissa hayotiyliigi bilan boshqa asarlardan ajralib

turadi. Ushbu qissaning boshidan to oxirigachan yozuvchimizning yoshligidan to katta yoshga yetguncha bo'lgan vaqt oralig'idagi eng esda qolarli hodisalar haqida so'z yuritilgan. Eng muhim jihati shundaki, adib yozilgan har bir qissadigi hikoylarda onasi ishtirok etgan unitilmas voqealarni yozishni esdan chiqarmaganligi taqsiinga loyiqdir. Shu sababli "Dunyoning ishlari" qissasini mutoala qiluvchilarning ko'z oldiga asar qahramoni bolgan onaning obrazi kelishi bilan bir qatorda har bir insonning o'z onasi va yoshligi gavdalanadi. O'tkir Hoshimovning onasi Hakima ayada har bir o'zbek ayolining oynadagi aksini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'zbek ayollariga qanday hurmat e'tibor bilan qarash kerak ekanligini ko'rsatib beradi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, O'tkir Hoshimov har bir onaning nafaqat oilaning ko'rki shu bilan birga har bir farzandning omad kaliti ekanligi yaqqol ko'rsatib bergan. Misol tariqasida, adib yozgan har bir asarining chop etilishi hamda kitob shakliga keltirilishi bilan nirinchi bo'lib o'z onasiga olib kelib, ko'rsatgan va duolarini olgan. Bu o'z navbatida, yozuvchining omad otiga minishi hamda xalqning sevimli yozuvchisiga aylanishiga sabab ho'lgan holat hisoblanadi. Shu o'rinda shuni takidlash joizki, har bir farzand onasi uchun eng aziz hisoblandi va farzandning har bir harakatidan xavotir olib ba'zida urishadi ba'zida jerkadi lekin hech qachon yomon bo'lsin demaydi hamda oldidan va ortidan duo qilishdan to'xtamaydi. Shu sababdan, har bir farzand o'z onasini tiriklik cho'g'ida qadrlab barcha orzu-niyatlarini amalga oshirishga harakat qilishi lozimdir. Bejiz adib "Dunyoning ishlari" qissasining "Iltijo" hikoyasida onasini vafot etgandan so'ng, qabrlariga borib Hakima ayaning tiriklik chog'larini eslab yig'laganini yozmagan, shu bilan birga, onasinning hayotlik paytida O'tkir Hoshimovga "Meniyam kitob qilib yozsdang-chi, o'g'lim<sup>4</sup>" deb ayganlariga javob sifatida "Sizning nimangizni kitob qilib yozaman, oyi?<sup>5</sup>" deb hazilomus javob qaytargan edi. Lekin mana vaqtlar o'tib Hakima aya vafot etganlaridan so'ng ularning o'rnolari tezda sezildi va yozuvchi o'z onasiga atalgan kitobni yozib bitkazdi. Ushbu asar o'zbek xalqining yuragidan chuqur joy egalladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qissa>.
2. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari / qissa / "Adabiyot barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: O'lmasxon Hoshimova, To'lqin Eshbek. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018
3. Rasulov A. Ardoqli adib. Toshkent. „Sharq“, 2001.
4. Karimov H. O'tkir Hoshimov. Toshkent. „Yozuvchi“, 2002.
5. Karimov N. va boshqalar. 20 asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.

<sup>4</sup> O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari / qissa / "Adabiyot barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: O'lmasxon Hoshimova, To'lqin Eshbek. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. – 205 b.

<sup>5</sup> O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari / qissa / "Adabiyot barhayot asarlar" turkumi. Nashrga tayyorlovchilar: O'lmasxon Hoshimova, To'lqin Eshbek. – T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. – 205 b.